

## TARIXIY ASARLARDA DAVR VA BADIY TO‘QIMA MASALASI

*O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi  
Farg‘ona akademik litseyi ona tili va adabiyot fani oliy toifali o‘qituvchisi  
Xaydarova Gullola Xoshimjonovna*

**Annotatsiya:** o‘zbek tarixiy romanlari, ularning badiiy xususiyatlari, tarixiy obrazlari va muayyan tarixiy voqelikni yoritishda ahamiyat kasb etuvchi unsurlar borasida fikr yuritiladi. Yaratilgan bir qator o‘zbek tarixiy romanlari xususiyatlariga to‘xtalib o‘tiladi. Ushbu maqolada Pirimqul Qodirovning tarixiy romanlarida tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima masalasi, yozuvchi tomonidan qalamga olingan tarixiy davrning yoritilishi, romandagi badiiy obrazlarning davr xarakterini tasvirlashdagi ahamiyati singari masalalar izohlanadi. Tarixiy davr xarakterini ochishda romandagi obrazlar, siyosiy jarayonlar, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarning qahramonlar hayoti misolida keltirilishi yetakchi vazifani bajarishi tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** tarixiy roman, tarixiy haqiqat, davr ruhining yoritilishi, badiiy to‘qima, tarixiy qahramon, xarakterlar evolyutsiyasi, tipik obraz, inqilobiy pafos, davr “chegarasi”.

“Tarixiy roman fan bilan san’atni uyg‘unlashtirgan nuqtadir”, - deganda buyuk rus munaqqidi V.G.Belinskiy yaratiladigan tarixiy roman uchun muhim shartlardan biri sanaladigan – ilmiy xulosalarning mosligi talabini tasdiq etgan edi. Darhaqiqat, o‘tmish haqida yaratilgan asarlarda ko‘tarilgan ijtimoiy –siyosiy muammo, voqea va asarda ishtirok etuvchi personajlarning tarix haqiqati bilan mutanosib hamda hamohang yoritilishi yetakchi masalalardandir. Bundan tarixiy asar faqatgina tarixiy faktlarga izchil asoslangan holda yaratilishi kerak degan mutlaq fikrga kelish bir qadar xato to‘xtamdir. Zero, tarixiy asarda ham muallif o‘z fantaziyasidan kelib chiqqan holda qalamga olingan davr ruhi, uning ijtimoiy-siyosiy muammolarni yoritishi mumkin. O‘zbek tarixiy yaratilgan qatorida shunday asarlar borki, ularda muayyan davr haqiqati to‘qima sujet, to‘qima obrazlar vositasida dokumental aniqlikda ochib berilgan. A.Qodiriy, Sadridin Ayniy, Oybek kabi ijodkorlar o‘zbek tarixiy romanlarini yaratishda ana shu yo‘ldan borgan holda yuksak badiiy ijod namumunalarini yaratganlar. Xususan, P.Qodirovning “Yulduzli tunlar“ romani xalqimizning shonli tarixi qalamga olingan va adib to‘qima sujeti hamda obrazlari vositasida yoritilgan sara asar sanaladi. Adibning bu asari adabiyotshunoslar tomonidan turli aspektlarda o‘rganilgan. Adabiyotshunos olimlar ushbu romanni boshqa jihatdan – unda yaratilgan voqea va obrazlarning tarixiy haqiqat bilan qay darajada mutanosibliigi masalasiga urg‘u berganlar: tarixiy romanga xalq orasidan chiqqan zaruriy odam kerak emas, balki kim bo‘lishidan qat’iy nazar, insoniy

haqiqatga suyangan, orzu va his-tuyg'ulari murakkab bo'lgan inson kerak. Xalq ana shunday chin insonlardan tarkib topganligi uchun ham tarix ijodkoridir. Shu gapning o'ziyoq muallif o'z romani markaziga xalq ichidan chiqqan oddiy, lekin "insoniy haqiqatga suyangan, orzu va his-tuyg'ulari murakkab bo'lgan" oddiy xalq vakili obrazini qo'shib sira xato qilmaganligini tasdiqlaydi. Romanning ko'plab personaj va voqealari to'qimadir. Va ayni paytda, ular hammasi kelib chiqishi jihatdan milliy qahramonlardir, ya'ni ular umaman ijodkor qay darajada to'qishga haqli bo'lsa, shu darajada to'qligandir: axir bizning tasavvurimiz va xotiramiz yagona daraxtning mevalari emasmi? Roman voqealari va qahramonlarini real tarixiy haqiqat bilan solishtirib tahlil etgan holda asarning hayotiylik kuchi qay darajada ekanligini isbot etishga kirishsak bo'ladi.

Bir qator qardosh ijodkorlar asarlarida ham bunday tipik obrazlar mavjudligini ko'rish mumkin. Masalan A.Kattabekov shunday tahlil qiladi: "S.Muqonovning "Bo'tako'z" romanidagi Asqar, B.Kerboboyevning "Dadil qadam" idagi Ortiq, S.Ayniyning "Doxunda" sidagi Yodgor obrazlari ana shu davr dehqonlarining fojeali ahvolini aks ettiradi. M.Avezovning "Abay" romanining 2-kitobida shunday tasvir bor: "Atrof qishloq va ovulardan shaharga tinmay odam oqadi. U yoqlarda qurg'oqchilik bo'lsa, ularning yeydigan hech vaqosi bo'lmasa, qayoqqa ham borishsin?! Mana shuning uchun ham kambag'allar shahar boylarinikiga bir qoshiq go'ja evaziga yumushga ketishyapti. Boylar uchun esa bu – ayni muddao!". Asar ijtimoiy ruhining yana-da keskinlashuvida, ayniqsa, jamiyat ijtimoiy tabaqalari va ular o'rtasidagi ziddiyatlarning konkret va real tasviri katta ahamiyatga ega. Roman boshdan oyoq inqilobiy pafos bilan yo'g'rilgan. Muallif xalq qasoskorlarining xarakterini yuzaga keltirgan murakkab muhit va sharoitni tasvirlash orqali sujetni shakllantiradi. Romanda bir qator mahalliy boylarning nomlari tilga olinga bo'lsa-da ularning tipik vakili sifatida Mirzakarimboy va uning o'g'illari- Hakim va Salim boyvachchalar, kuyovi Tantiboyvachcha hamda Fazliddinboylar obrazi to'laqonli chizib beriladi. Ular kitobxonga o'sha davr yurt egalari hayoti, faoliyatining butun mohiyatini ochib bera oladi. Davr hayotiga mos ravishda bular bilan bir safda chor hukumati ma'muriyati vakillari – hokim to'ra, pristav, savdogar, politsiya boshlig'i, jandarmlar ishtirok etadiki, bu obrazlar davr haqida yana-da to'laroq va konkreteroq tasavvur olishga yordam beradi. Turkiston qishloqlaridagi iqtisodiy muammolar, yer-suv munosabatidagi keskin ziddiyatlar ham o'qirman ongida davr va muhit to'g'risidagi tushunchalarni bir qadar o'stiradi. Ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy sabablar xalq qalbida o'z ho'jayinlariga va chor hukumatiga nisbatan norozilik, alam va nafrat olovini yoqadi. Podsho Nikolayning 1916-yil 26-iyunda mardikor olish haqidagi qarori va bu qarorni amalga oshirishda ro'y bergan adolatsizliklar esa mavjud noroziliklarning qo'zg'alonga aylanishi uchun so'nggi hal qiluvchi turtki vazifasini o'taydi. Yozuvchi

goho voqeadan g'oya keltirib chiqarmay, oldindan o'ylangan g'oyaga mos hayot kartinalarini illyustratsiya qilish bilan cheklanadi.

Yozuvchining noyob iste'dodi orqali aks ettirilgan bu real voqealar romanda dokumental aniqlik kasb etadi...Yozuvchi tarixchilardan farqli ravishda qo'zg'olonning internatsional xarakteriga ham e'tibor beradi, bu esa tarixiy haqiqatga mos tushadi. Olim roman qahramonlari masalasini tahlil etar ekan, barchamizga ma'lum bo'lgan obrazlar ustida ko'plab tahlillar olib boradi. Bu obrazlarning qay darajada tarixiy haqqoniylik kasb etishi muammosi esa muayyan tarixiy faktlar asosida hal etiladi. Ma'lumki, bunday mavzudagi asarlar o'z mohiyat e'tiboriga ko'ra asosida ijtimoiy va siyosiy konflikt yotadigan jiddiy epik asardir. Tabiiyki, bunda sevgi liniyasi ham inkor etilmaydi. "Yulduzli tunlar"da ham juda go'zal sevgi liniyasi berilgan. Biroq muallif bu sevgi liniyasiga u qadar berilib ketmaydi. Yo'lchi o'zining tor tuyg'ulari bilan emas, davr tuyg'ulari, xalq g'ami bilan yashaydi.

Afsuski, keyingi davrda yaratilgan bir qator asarlarda bu liniya konfliktning yagona asosi sifatida qo'yilmoqda. Bu esa taraqqiyotning asosi bo'lgan davrning ijtimoiy-iqtisodiy konfliktlarini kambag'allashtiradi, ularga soya solib qoladi. Tasvirlanayotgan davr, voqealar xarakteri asarga qahramonlar tanlash va ularni chizish tamoyillarini ham belgilab beradi. Chunki xalq ommasi amalga oshirayotgan tarixiy jarayonlar hayotni inqilobiy yo'l bilan qayta o'zlashtirishning umumxalq xarakterini ko'rsatib berishni talab etadi. Yozuvchi birinchilardan bo'lib hayot to'qnashuvlarida, davr shafqatsizliklarida qahramon xarakteri takomilini ko'rsatish orqali o'zbek inqilobchilari sinfiy ongining shakllanish tarixini aniq tarixiy va milliy materialda tasvirlab bera oldi. U asarning bosh muammosi sifatida xalq ommasi hayoti hamda sinfiy tengsizlikni, ular orasidagi kurashni keng qamrovda ko'rsatib, inqilobning hal qiluvchi kuchi kimlar ekanligini ko'rsatishni maqsad qilib qo'ygan edi. Vaqt o'tishi bilan tarixiy-inqilobiy romanchilik qamrovi kengayib, borgan sari yangilanib boryapti.

Qalamga olingan davrning va xalqning bir parchasi sanalgan personajlar yo'lining tasviri esa muayyan tarixning manzarasini va yo'nalishini ochib beradi. Yozuvchi o'zi nishonga olgan davrdagi hayotni butunligicha yaxlit ochib berishi, ya'ni undagi bor ijobiy jihatlar bilan bir qatorda salbiy holatlarni, ziddiyatli vaziyatlarni, mavjud murakkab psixologik jarayonlarni ham ishonarli va dalillar asosida yoritishdek vazifani o'z zimmasiga oladi. Chinakam yetuk roman xalq hayotining ma'naviy ko'zgusi hisoblanadi. Roman keng qamrovli, ulkan fikr mahsulidir. Yozuvchi o'tmish mavzusiga murojaat qilar ekan, umuman adabiyot ko'zlagan maqsadni ko'zlab ish tutadi: u o'quvchini o'ylashga, sezishga, hayajonlanishga majbur qiladi. U bugungi o'quvchining, bugungi kishining ma'naviy dunyosiga murojaat etadi va birgina shuning o'zi san'atkorning bugungi zamondoshi manfaatlaridan uzoqlashib ketmasligini ta'minlaydi. Asil mohiyati bilan hamma harakat ma'naviy boyliklarni izlab topishga qaratiladiki, tariximizda uning manbalari oz emas.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari”.-T., O‘zbekiston. 2002.
2. Kattabekov A. Tarixiy haqiqat va badiiy mahorat.-T., Fan. 1972
3. Oybek. Adabiyot, tarix, zamonaviylik.- “O‘zbekiston madaniyati” 1966-yil 1-oktabr
4. Деева Е. У истоков социал-демократического движения в Туркистане. Ташкент, 1975
5. “Юрий Тинянов” kitobiga yozilgan so‘z boshi. M., 1963 6. Ю. Трифонов “Литературная газета”, 19 июня 1974 г
6. M.O.Tokhirjonovna. [VOCABULARY DEVELOPMENT IN ONTOGENESIS IN PRESCHOOL CHILDREN](#). Modern Journal of Social Sciences and Humanities 5, 375-379
7. M.O.Tokhirjonovna. Semantics of the Word in Children's Speech. International Journal of Culture and Modernity 17, 267-273
8. O.Mahmudova. [СЎЗ ЛЕКСИК МАЪНОСИНИНГ ҲОСИЛА МАЪНО ЮЗАГА КЕЛТИРИШИ](#). Science and innovation 1 (B6), 171-176
9. O.T.Mahmudova. [TURKIY SO‘ZLARDA O‘ZAK MORFEMA TUSHUNCHASI](#). Journal of Integrated Education and Research 1 (6), 52-54